



## **XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI**

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko'chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2022 йил «26» июль

VI-51-132-8-109-K/22

Ангор туман ҳокимлиги

**Tumanda 2022 yil uchun eksport prognoz ko'rsatkich rejalariularni bajarilishi, mahalliy eksportyorlarni qo'llab-quvvatlash va investitsiyalar jalb qilish hamda investitsiya loyihalari bo'yicha amalga oshirilishi zarur bo'lgan chora-tadbirlar ijrosi to'g'risida tuman hokimining o'rinbosari – tuman investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi boshlig'ining hisoboti to'g'risida**

Angor tumanda hozirda 19 ta eksportyor korxonalar faoliyat olib borib, 2022 yil yanvar-iyun oylari uchun jami 9,5 mln. AQSh dollariga teng bo'lgan meva-sabzavot va sanoat mahsulotlari eksport reja grafigi belgilangan bo'lib, ushbu reja 2022 yil 30 iyun holatiga 6,5 mln. AQSh dollari yoki 70 foizga bajarildi. Jumladan, "AVALON TEXTILE" MChJga 2022 yil yanvar-iyun oylari uchun 3,6 mln. AQSh dollari miqdorida eksport reja belgilangan bo'lib, 30 iyun sanasi bilan korxonaga 2,9 mln. AQSh dollarilik qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xorijga eksport qilib, belgilangan rejani 83,8 foizga bajargan. "Tanovar Surxon" MChJ xorijiy korxonasi o'zida yetishtirilgan 391,6 ming AQSh dollarlik sabzavot va poliz ekinlarini Rossiya Federatsiyasiga eksport qilgan. Shuningdek, "Surxon ipagi" MChJ tomonidan xorijga tayyor ipak mahsulotlari hamda ipak xomashyosi eksporti amalga oshirilib kelmoqda. Korxonaga 2022 yil yanvar-iyun oylarida jami 300 ming AQSh dollarlik ipak mahsulotlari eksport qilgan. "SURXON ANGOR GOLDEN FRUITS EXPORT" MChJ tomonidan 792,5 ming AQSh dollarlik trikotaj mahsulotlari eksport qilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 1-2 iyun kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrifi davomida viloyatini kompleks rivojlantirish bo'yicha o'tkazilgan yig'ilish bayoniga asosan Angor tumanida umumiy qiymati 743,9 mlrd. so'mlik 77 ta loyihalar (1983 ta ish o'rni) hamda tashqi savdo, investitsiyalar, mahalliy sanoatni rivojlantirish va texnik jihatdan tartibga solish masalalari bo'yicha Hukumat komissiyasi yig'ilishi 2-son bayonining 10-ilovasida

qo‘shimcha loyihalar kiritilgan. Shunga ko‘ra Angor tumanida 2022 yilda jami 46 ta umumiy qiymati 372,4 mlrd. so‘mlik sanoat, xizmat ko‘rsatish va qishloq xo‘jaligi loyihalari amalga oshirilishi rejalashtirilgan bo‘lib, 2147 ta yangi ish o‘rinlari yaratilishi belgilangan. 2022 yil yanvar-iyun oylarida qiymati 5,9 mlrd. so‘mlik 5 ta loyihalarning amalga oshirilishi natijasida 33 ta yangi ish o‘rinlari yaratilishi rejalashtirilgan.

Shuningdek hisobotda "IMPERIYA-ANGOR-GOLD", "TALLIMARON CHORRAHASI" xususiy korxonalari, "ZAMIN ANGOR CLUSTER" MChJ, "RAMAZON AZIZA SURXON" oilaviy korxonasi tomonidan yaratilgan ish o‘rinlari, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va xorijiy kredit liniyalari asosida o‘zlashtirilishi rejalashtirilgan mablag‘lar kabi ko‘plab amalga oshirilayotgan loyihalar xususida ma‘lumotlar keltirilgan.

Tumanda 2022 yil uchun eksport prognoz ko‘rsatkich rejalarilarning bajarilishi, mahalliy eksportyorlarni qo‘llab-quvvatlash va investitsiyalar jalb qilish hamda investitsiya loyihalari bo‘yicha amalga oshirilishi zarur bo‘lgan chora-tadbirlar ijrosi to‘g‘risida tuman hokimining o‘rinbosari-Investitsiyalar va tashqi savdo bo‘limi boshlig‘ining hisobotini eshitib, xalq deputatlari tuman Kengashi

#### **QAROR QILADI:**

1. Tumanda 2022 yil uchun eksport prognoz ko‘rsatkich rejalarilarining bajarilishi, mahalliy eksportyorlarni qo‘llab-quvvatlash va investitsiyalar jalb qilish hamda investitsiya loyihalari bo‘yicha amalga oshirilishi zarur bo‘lgan chora-tadbirlar ijrosi to‘g‘risida tuman hokimining o‘rinbosari - investitsiya va tashqi savdo bo‘limi boshlig‘i M.Tog‘ayevning hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimi o‘rinbosari M.Tog‘ayev, sektor rahbarlari hamda tegishli korxonalar va tashkilotlar rahbarlariga:

dastur doirasidagi investitsiya loyihalari bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni tasdiqlangan tarmoq jadvallari asosida olib borilishi va loyihalarni belgilangan muddatlarda foydalanishga topshirilishini tizimli nazorat qilib borish;

to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hajmini yanada oshirish;

bo‘sh turgan binolar negizida investitsiya loyihalarini ko‘paytirish, tadbirkorlik sub’ektlariga ruxsat beruvchi hujjatlarni olishda, kommunikatsiyalarga ulanishda va tijorat banklari tomonidan kreditlar ajratilishini nazorat qilish;

joriy yilga mo‘ljallangan eksport rejasini bajarish;

2022 yil oxiriga qadar ya'ni choraklar davomida amalga oshirilishi rejalashtirilgan investitsiya loyihalarini o'z vaqtida amalga oshirish natijasida yangi ish o'rinlarini yaratish choralarini ko'rish va har chorak yakuni natijalarini deputatlar muhokamasiga kirtish uchun tuman Kengashining tegishli doimiy komissiyasi yig'ilishlarida hisobot berib borish vazifalari yuklatilsin.

3. Tuman hokimligi axborot xizmati hamda "Angor yog'dusi" gazetasi tahririyati (G.Jumayeva)ga tumanda investitsiya loyihalarini amalga oshirish va yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritib borish tavsiya etilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiya raisi R.Kabulova zimmasiga yuklatilsin.

5. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Hokim



SH.B.ABDULLAYEV